


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktsional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'atlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 853,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 823,3 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6 853 683,9	103,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	300 555,0	103,8
Moliyaviy xizmatlar	1 182 345,9	145,0
Transport xizmatlari	1 596 428,6	101,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 507 609,4	102,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	286 281,1	80,6
Savdo xizmatlari	2 209 153,6	99,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	174 482,4	92,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	296 687,1	82,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	106 068,6	80,9
Ijara xizmatlari	167 498,7	94,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	132 027,3	95,8
Shaxsiy xizmatlar	132 861,4	90,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72 421,3	71,1
Boshqa xizmatlar	196 872,9	96,7

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,3 %), moliyaviy xizmatlar (17,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,4 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish - 1,6 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha va shaxsiy xizmatlar hissasi 1,9 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (45,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,8 %) va transport xizmatlari (1,4 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (28,9 ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (19,4 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (19,1 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (7,8 % ga), shuningdek, ijara xizmatlari (5,4 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 32,2 % ni tashkil etib, bu 2 209,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 79,2 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,2 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlarining hajmi 1 596,4 mlrd. so'mni tashkil etib, nominal hajmi esa 160,9 mlrd. so'mga yetdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari 101,4 % ni tashkil etdi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 23,3 %.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 182,3 mlrd. so'mni - tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 805,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni ulushi 13,4 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 376,7 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 45,0 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni o'sish sur'ati 172,7 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.




Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,5 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,3 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,2 % ni tashkil etadi.



Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlarni ochadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi 300,5 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati 103,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyl hajmdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekomunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 95,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,1 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % shuningdek, noshirlik xizmatlari - 1,7 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'limga bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'limga sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ta'limga sohasidagi xizmatlar hajmi 296,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 82,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 80,6 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 286,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 4,2 % ni tashkil etdi.




2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 5,0 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,0 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 106,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 80,9 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlarning umumiylajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 56,5 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Buxoro shahrining ulushi 56,4 % ni tashkil etgan.


Qorovulbozor tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,8 % kuzatilgan.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro va G'ijduvon (103,7 %), Peshko' va va Kogon (103,5 %) tumanlari hamda Buxoro shahrida (103,3 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish Kogon shahri, Romitan va Jondor (102,8 %) va Qorako'l (102,6 %) tumanlarida qayd etildi.

O'sish sur'atining pasayishi Qorovulbozor (8,5 % ga), tumanida kuzatildi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida Buxoro shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmi hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan Buxoro shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 475,9 mlrd. so'mga oshdi va 3 875,4 mlrd. so'mga yetdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
Buxoro viloyati *)	6 853 683,9	103,0	111,6
Olot	178 147,7	102,3	108,9
Buxoro	282 225,0	103,7	109,0
Vobkent	246 799,2	102,6	109,4
G'ijduvon	680 177,5	103,7	109,6
Jondor	216 456,2	102,8	109,8
Kogon	175 099,9	103,5	111,2
Qorako'l	217 178,1	102,6	107,6
Qorovulbozor	109 269,2	91,5	100,2
Peshko'	207 838,2	103,5	109,2
Romitan	238 589,6	102,8	107,9
Shofirkon	210 860,7	102,0	109,5
shaharlar:			
Buxoro shahri	3 875 445,3	103,3	113,5
Kogon shahri	215 597,3	102,8	107,6

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (680,2 mlrd. so'm), Buxoro (282,2 mlrd. so'm), Vobkent (246,8 mlrd. so'm) va Romitan (238,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 547,8 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 3 547,8 ming so'm


O'sish sur'ati, 2019-yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, % da – 101,6 %

Hajmning o'sishi, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, - 382,9 ming so'mga

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm

(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtaida Buxoro shahrida 13 816,2 ming so'mdan Shofirkon tumanida 1 187,3 ming so'mgacha oraиг'ida bo'ladi.

Ushbu tumanda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu tumanda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Qorovulbozor tumanida aholi soni (2020 yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 18,4 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 5 938,5 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdonligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni - 17 088 birlikda

Ularning umumiy
sonidagi ulushi - 63,6 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish
sur'atlari - 116,9 %



**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning
1- oktabr holatiga
ko'ra, xizmatlar
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona
va tashkilotlarning
ulushi - 63,6 %,
sanoat - 15,4 %,
qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi sohasi -
11,1 % ga yetdi.

Qurilish sohasi atigi 9,9 % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,9 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,8 % ga yetdi.



Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 14 616 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 37,2 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,0 %, tashish va saqlash - 9,0 %, sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,8 %, axborot va aloqa - 1,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 36,4 % ni tashkil etgan.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 80,8 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 77,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 540 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 13 806 tani tashkil etdi va o'sishi esa 22,5 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 58,8 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,5 % ekvivalentida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bolimi

Тел.: 65-220-83-13